

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA TARBIYAVIY G‘OYALAR

Zaribova Mo‘tabar

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining turli janrlarida - ertak, doston, maqol, matal, topishmoq va qo'shiqlarda mujassam bo'lgan tarbiyaviy g'oyalar yoritiladi. Xalq ijodi asarlarida yosh avlodni halollikka, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka, ezgulikka chorlovchi o'gitlar tahlil qilinadi hamda ularning bugungi kundagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar. Xalq og'zaki ijodi, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, ertak, maqol, doston, xalq donishmandligi, badiiy-estetik tarbiya.

Abstract. This article discusses the educational ideas embodied in various genres of Uzbek folk art - fairy tales, epics, proverbs, idioms, riddles and songs. The teachings in folk art that encourage the younger generation to be honest, hardworking, patriotic and kind are analyzed and their significance for today is shown.

Keywords: Folk oral culture, education, moral values, fairy tales, proverbs, epics, folk wisdom, artistic and aesthetic education.

Har bir sohaning o‘z tarixi bo‘lgani kabi xalq og‘zaki ijodidagi izlanishlarning ham o‘z ildizlari mavjud. Albatta, bu izlanishlarning ildizi olis o‘tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og‘zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo‘lsa, bularning bari o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga o‘zining munosib ulushini qo‘shgan.

Xalq og'zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllanib kelgan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ma'naviy boyligining badiiy ifodasidir. Shuning bilan birga, tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Undagi ertak, doston, maqol, topishmoq va qo'shiqlar nafaqat xalqning estetik didini aks ettiradi, balki chuqur tarbiyaviy g'oyalarga ham boydir. Ya'ni ulardagi tarbiyaviy g'oyalar, axloqiy o'gitlar, vatanparvarlik va ezgulik motivlarining o'rni beqiyos. Ushbu janrlar yosh avlodni hayotga tayyorlashda, ularning dunyoqarashini, tarbiyaviy ahamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodining har bir janri ibratli qahramonlar yaratib, ularni yoshlar uchun namuna sifatida ko'rsatadi. Badiiy obrazlar orqali hayotiy haqiqatlar va axloqiy qoidalar o'rgatiladi.

Har bir ertak yoki doston o'z davridagi tarbiyaviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilgan va bugungi kunda ham shu kuchini yo'qotmagan. Masalan hammamiz uchun birdek yoqadigan "Zumrad va Qimmat" ertagida yaxshilik va yomonlikning farqi ochib berilib, bunda o'quvchi ezgulik sari chorlanadi. "Boy ila kambag'al" ertagida esa xalqning

saxiylikka bo'lgan yuksak bahosi aks etadi, kambag'al obrazida qanoat va mehnatning ulug'ligi yotadi. Boriga shukr qilib, hamjihatlikni qadrlashga undaydi. Boy obrazi esa ochko'zlik, baxillik va manmanlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Xalq shu orqali "Boylilik emas, saxovat va mehnat insonni ulug'laydi" degan tarbiyaviy fikrni yetkazadi. "Maqol xalqning xazinasi" degan gap bejiz emas, albatta. "Mehnat qilgan to'yadi", "El bilan yegan osh harom emas" kabi maqollar ham insonni mehnatga, birodarlikka, hamjihatlikka undaydi. Bu o'gitlar yoshlar ongiga chuqur singadi.

Sadoqat, sabr, vatanparvarlik va ezgulik tuyg'ularini uyg'otuvchi yoki tarbiyalovchi "Alpomish" dostoni Vatan himoyasi yo'lidagi fidoyiligi g'oyalari bugungi yoshlarni ruhlantiruvchi doston hisoblanadi.ning yuksalishiga xizmat qildi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir, deb yozadi o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" kitobida. "Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi".

Umuman, xalq og'zaki ijodi og'zaki ijro etilgani uchun emas, balki og'zaki ijro jarayonida yuzaga keladigan san'at asari bo'lgani uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi - bu nafaqat o'tmish xotirasi, balki bugungi kunda ham yoshlarga ibrat va o'git bo'ladigan boy xazinadir.

Undagi tarbiyaviy g'oyalar orqali millatimizning axloqiy-ruhiy qiyofasi shakllanib kelgan va kelajak avlodni ham ezgulik sari yetaklab boraveradi. Shu bois, xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish va uning tarbiyaviy ahamiyatini bugungi hayotimizda keng targ'ib etish nihoyatda dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 176 b.
2. Hodiye A., Karimov H. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1990.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T.: "Mumtoz O'z", 2010.
4. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi-T., 2005.
5. Mirzayev T. O'zbek xalq dostonlari. - Toshkent: Fan, 2008.